

O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
O'zbek filologiyasi fakulteti

Kurs ishi

Mavzu: Tabobat va san'at

Bajardi: Abduvaliyeva K.

Qabul qildi: Eshov B.

Toshkent 2013

MUNDARIJA

KIRISH.

I.BOB. IBTIDOIY SAN'AT.

1.1.IBTIDOIY SAN'ATNING PAYDO BO'LISHI.

1.2.IBTIDOIY SAN'AT TURLARI.

1.3.ARXEOLOGIK QAZISHMALARDA TOPILGAN IBTIDOIY
SAN'AT NAMUNALARI.

II.BOB. IBTIDOIY TABOBAT.

2.1. IBTIDOIY TABOBAT TARIXI.

2.2.IBTIDOIY TABOBATNING HOZIRGI ZAMONAVIY TIBBIYOTDA
TUTGAN O'RNI.

XULOSA.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO'YXATI.

ILOVA

KIRISH

San'at insoniyat faoliyatining bir turi sifatida har xil madaniyat doiralarda namoyon bo'ladi: rassomlik, musiqa, teatr, badiiy adabiyot va h.k. U ixtisoslashgan badiiy atrof hayot va muhit voqealarini ifodalashdir.

Shu bilan birga san'at shaxsning intellektual va xissiy taraqqiyotini, madaniy merosni, abadiy qadriyatlarni o'zlashtirish eng qudratli vositasidir. Tosh asrida paydo bo'lgan san'at dastlab kundalik hayot ehtiyojlari bilan uzviy boqliq bo'lib, so'ng turli san'at yo'nalishlari va mustaqil faoliyat sifatida shakllanadi: diniy san'at, texnik (me'morchilik, dizayn), jurnalistika (ocherk, publitsistika), tashviqot va targ'ibot (notiqlik, reklama), sport (badiiy gimnastika va h.k.). Bundan tashqari texnik jihatdan ham san'at asarlari farq qiladi: rang-tasvir san'ati, haykaltaroshlik, grafika, monumental san'at, amaliy san'at, miniatyura va h.k.

San'atshunoslik san'at nazariyasi, tarixi va badiiy tanqidlardan iborat. Birinchi san'atshunoslik nazariyalari Platon va Aristotel asarlarida o'z aksini topgan. Yevropada uyg'onish davrida san'atshunoslik mavzuiga doir turli risolalar yozilgan. Lekin asosan san'atshunoslikning turli yo'nalishlari XIX-XX asrlarda shakllanadi (V.Lyubke, A.Shpringer, G.Maspero, Ya.Burgxardt, V.V.Stasov).

Hozirgi zamon san'atshunoslik borasida rassomlik, grafika, skulptura muhim o'rin tutgan. Shu toifa san'atlar doirasiga me'morchilik va amaliy san'atni ham qo'shsa bo'ladi. Kino va teatr sintetik san'atlar turkumiga kiradi.

San'atning asosiy xususiyati san'atkor moddiy manzaralar aksini yaratar ekan o'zining g'oyaviy pozitsiyasi, xissiyoti va fikrini shu manzara orqali ifodalashga harakat qiladi.

San'at asarlari turli janrlardan iborat. Misol uchun rassomlik sohasida tarixiy, kundalik hayot, jang manzaralari, portret, peyzaj, natyurmort va h.k.lardan iborat. Davr o'tishi bilan san'at janrlari o'zgarib boradi. Misol uchun qadimda o'ta muhim bo'lgan mifologik janr hozir yo'qolib ketgan.

Har bir san'at asarining eng muhim tushunchalaridan biri uning kompozitsiyasidir. har bir san'atkor ma'lum bir voqeani ifodalar ekan, aynan uning kompozitsiyasi orqali asarning g'oyasi va xissiy dunyosini ifodalashga harakat qiladi.

Sharq san'atining antik davrga borib taqaladigan tarixi bilan tanishish, hamda shu davrga taalluqli yunon, rim, xitoy manbalarini, shuningdek, o'rta asrda yashab o'tgan tarixchi va geograflarning asarlarida uchraydigan me'morchilikka, haykaltaroshlikka, naqqoshlikka va san'atning boshqa turlariga aloqador ma'lumotlarni bilish kurs ishining asosiy vazifalaridan biridir. Masalan, o'rta asrlarda yashagan Xakimbeyning xabar berishicha, G'azna shahrida yashagan Abdulxayrning uyida uning o'zi va yaqin a'yonlari tasvirlangan katta rasmlar bo'lgan. XIII-XV asrlarga taalluqli san'at olamini o'rganishda Marko Polo, Klavixox va boshqalarning Old va O'rta Osiyodagi shaharlarni ta'riflagan asarlari juda ham asqotadi.

Tayanch so'z va iboralar: san'at, tosh asri san'ati, realizm, rasm, rang, plastika, janr, uslub, haykaltaroshlik, grafika, monumental san'at, amaliy san'at, miniatyura, Gerodot, Fiva, Tutanxamon, Tot, Joser, mastaba, Xfren, Xeops, Ra, Luksor, Karnak, Ur, Urug, Lagash, Xorsabad, Ashshur, Nineviya, zikkurat, kiten, mixxat, Karxemish, Yazili-qaya, Karmir-Blur, Argeshtixinili, Xakmadana, Zivie, Frigiya, Likiya, Vaflogoniya, Pasargad, Persepolis, Suz, Vavilon, Amudaryo dafinasi. Ellinizm, Aleksandr, salavkiylar, ptolomeylar, paxlaviylar, Palmira, Parz, Ardasher, Toqi-Bo'ston, daxlar, saklar, yuechjilar, kushonlar, kanguylar, xunlar, eftaliylar, turklar. Tuproqqal'a, Samarqand, Yerqo'rg'on, Kuyovqo'rg'on, Bolaliktepa, Varaxsha, Shaxriston, Panjikent, Qo'yqirilganqal'a, Mansurdepe, Qal'aliqir II, xalifat, rasululloh, mavalixon, Ajam, machit, qibla, ummaviylar, abbosiylar, Damashq, Bag'dod, fotimiylar, Kordova xalifati, saljuqiylar, usmonlilar sulolasi, Istanbul, Isfaxon, Sheroz, Nishopur, G'azna, Abu Muslim, Muqanna, Buxoro, Termiz, Marv, Samarqand, Choch, Kat, Urganch, masjid, madrasa, maqbara, islami, girix, sharafa, koshin, parchin, Shoxi-Zinda, Oqsaroy, Moxenjodaro, Xarappa, Kalibangan, arriylar, Djuxukar madaniyati, Sidxartxa Gautama Budda Shakya Muni va uning ta'limoti, Sanchi, stupa, stambxa.

I-BOB. IBTIDOIY SAN'AT

1.1.IBTIDOIY SAN'ATNING PAYDO BO'LISHI

San'at asarlari turli janrlardan iborat. Misol uchun rassomlik sohasida tarixiy, kundalik hayot, jang manzaralari, portret, peyzaj, natyurmort va h.k.lardan iborat. Davr o'tishi bilan san'at janrlari o'zgarib boradi. Misol uchun qadimda o'ta muhim bo'lgan mifologik janr hozir yo'qolib ketgan.

Har bir san'at asarining eng muhim tushunchalaridan biri uning kompozitsiyasidir. har bir san'atkor ma'lum bir voqeani ifodalar ekan, aynan uning kompozitsiyasi orqali asarning g'oyasi va xissiy dunyosini ifodalashga harakat qiladi.

San'atning asosiy turlari, uslublari va janrlari

Rang-tasvir(jivopis), grafika (rassomilik), skulptura (haykaltaroshlik). San'atning ushbu turlari insonning ko'rish qobiliyati orqali ifodalanadi. Me'morchilik arxitektura va amaliy san'at namunalari ham ko'rinish orqali inson hissiyotiga ta'sir qilishi mumkin. Ya'ni bu turdagi san'atlar faqat ma'lum bir sath yoki masofa orqali ma'lum bir g'oyani yoki hissiyotni ifodalashi mumkin. Lekin kino, teatr, video san'at turlari ma'lum bir jarayonlarda ham ifodalaydilar. Bu turdagi san'atlar sintetik san'at turlari sifatida baholanadi. Tasviriy san'at sohasida rasm (risunok), rang, plastika (haykaltaroshlik xususiyatlari) tushunchalari ahamiyati muhim. Misol uchun haykaltaroshlik vositasi orqali tabiat manzarasini ifodalab bo'lmaydi. Lekin yuqorida qayd etilgan san'at turlarining asosiy maqsadi va mohiyati atrof-muhit asosiy voqealari va hodisalarini ifodalashga va ular bilan bog'liq bo'lgan hissiyotni tomoshabinga yetkazishga mo'ljallangan.

Janr tushunchasi bu tushuncha san'atning ma'lum bir mavzular bilan cheklangan yo'nalishini ifodalaydi. Misol uchun tarixiy janr, jangovor janr, portret, peyzaj va hokazo. Davr o'tishi bilan ma'lum bir janrlar yo'qolib (misol uchun mifologik janr, yoki diniy janr) yo'qolib, uni o'rniga yangi janrlar shakllanib boradi¹.

¹ Всеобщая история искусств. Т.І., М., 1956

Uslub (stil) bu tushuncha ma'lum bir davr va hudud bilan cheklangan bir guruh san'atkorlarga xos bo'lgan xususiyatlardan iborat. har bir uslubning g'oyaviy va metodologik umumiylik ifodalaydi. Ba'zi bir uslublar ming yillar mobaynida o'zgarmasligi mumkin. Misol uchun qadimiy Misr tasviriy san'atining uslubiylati ming yillar davomida o'z xususiyatini yo'qotmagan.

Rang-tasvir (jivopis) san'atining paydo bo'lishi ibtidoiy davr poleolitdan boshlab sanaladi. Antik va o'rta asrlarda rang-tasvir asosan devoriy naqshlardan iborat bo'lgan. Lekin Yevropaning uyg'onish davridan boshlab, uning turli texnikalari ko'payib ketadi. Matoga solingan rang-tasvirlar, akvarel, guash, tempera va h.k. Devoriy naqshlar qatoriga mozaika (parchin), mayolika (koshin), tosh bareleflar(bo'rtma tasvir) qo'shilib boradi.

Shular kabi rassomlik (grafika) monumental san'at, dekorativ amaliy san'at namunalari, miniatyura san'ati turlari qator o'ziga xos alomat va belgilari bilan, bajarilish texnologiyalari bilan farq qilib, ularning har bir turi o'z o'rnida va o'z davrida ishlatilib kelgan.

Tasviriy san'at namunalari va suyakdan ishlangan ibtidoiy nay asboblari yuqori paleolit davridan, 30-35 ming yil burun ibtidoiy manzilgohlardan topilgan². Shu davrdan boshlab san'at tarixini kuzatib kelishimiz mumkin. Ushbu san'at namunalari ibtidoiy odamning kundalik hayoti ovchilik, termachilik iqtisodiyoti texnologiyalari, ular bilan bog'liq bo'lgan irim-sirim marosimlar, ya'ni mehnat faoliyati bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Mezolit, neolit davrlarida turli abstrakt tushunchalar shakllanishi tufayli, misol uchun kunlarni sanash, davr o'lchovi, kalendarlar yaratila boshlanadi. Bu hodisa dehqonchilik va chorvachilikning shakllanishi bilan paydo bo'la boshlaydi. Chunki turli kalendar fasllarga qarab ekin ekish, uni sug'orish, hosilini yig'ish yumushlari amalga oshirilgan.

²Кацнельсон И.С. Тутанхамон и сокровища его гробницы. М., 1979.

Ibtidoiy qoya toshlarda 30 raqamdan iborat bir qator chiziqlar oy hisobini ifodalaydi, doira, o'q, odam besh panjasi va boshqa nishonlar uchray boshlaydiki, ularning ma'nosi, semantikasi rassomga ma'lum bo'lgan abstrakt tushunchalarning ifodasi bo'lishi mumkin. Shu asosda asta-sekin ornament san'ati shakllanib, neolit davrida keng ko'lamda kulolchilik mahsuloti tarqalganidan so'ng ilk dehqonchilik madaniyati markazlarida (Misr, Mesopotamiya, Moxanjadaro, Anao va Yanshao madaniyatlarida) keramika mahsuloti namunalarida keng ko'lamda turli-tuman ornamental syujetlarining gullab-yashnashini kuzatamiz.

Qadimgi madaniyat markazlari hisoblangan Misr, Mesopotamiya, Xett davlati, Urartu, Moxenjadaro, Xarappa va boshqa joylardan topilgan arxeologik manbalar, shuningdek, antik davr va ilk o'rta asrlarga oid yodgorliklarni o'rganish natijasida to'plangan ma'lumotlar (me'moriy yodgorliklar - saroylar, qabrlar, mavzoleylar va boshqa me'morchilik obidalari, amaliy san'at asarlari, naqqoshlik, rassomlik va boshqa san'at turlari) va moddiy madaniyat yodgorliklarining barchasi (eramizdan avvalgi IV ming yillikdan boshlab to rivojlangan feodalizm davrigacha (IX-XII) sharq xalqlarining boy ma'naviy dunyosi haqida ma'lumot beradi³.

Kurs ishida rus olimlarining, arxeologlarning Sharqiy Turkistonda, O'rta Osiyoda (B.V.Bartold, V.A.Jukovskiy) olib borgan ishlariga ham e'tibor qaratiladi. Sharq amaliy san'atini o'rganishda N.A.Orbeli, B.L.Denike, B.V.Veymarn, A.Yu.Yakubovskiy, L.D.Go'zalyan, I.Yu.Krachkovskiy va boshqalarning xizmati kattadir. Hozirgi vaqtda Uzoq Sharq mamlakatlari madaniyati va san'ati masalalari ustida ish olib borilmoqda.

³Брентъес Б. От Шанидара до Аккада. М., 1976.

1.2.IBTIDOIY SAN'AT TURLARI

Misr san'ati.

Qadimgi Misr sivilizatsiyasi jahonning eng qadimiy va boy madaniy meroslari bilan mashhur. Ibtidoiy davrlardayoq Misr amaliy san'atida tasviriy lavhalarning frontal yaxlitligiga, detallarning real-hayotiy chiqishiga, ma'lum tasviriy an'analar (kanonlar)ning yuzaga kelishiga qarata taraqqiyot chizig'i ko'zga tashlanadi. Bular avvalo rang bo'yoqli eneolit davri sopol buyumlarida, suyakdan yasalgan mo'jaz buyumlarda, hayvon shoxidan yasalgan kichik haykalchalarda kuzatiladi.

Misrda quldorlik jamiyati yuzaga kelgan paytlarda tasviriy san'at zodagonlar hukmronligining kuchli mafkuraviy vositasiga aylanadi. Ayniqsa, fir'avnlarni hokimiyatini ulug'lash, mavjud tuzumning ilohiyligini va abadiy barqarorligini ta'kidlashga qaratiladi. Fir'avnlarni tasvirlashning maxsus doimiy belgilari kanon o'lchamlari paydo bo'ladi. Ularda fir'avnlarning ilohiyligi, oddiy insonlardan farqliligi, yuz ifodalarining qahriligi, turish yoki o'tirishlarining hukmparmoliligi aks ettirilgan.

Qadimgi Misrning monumental binolari va turli inshootlari ham ayni shu g'oyaga bo'ysindirilgan. Qadimgi ilk fir'avnlilik davrlaridayoq qurilish inshootlari ulug'vorlik, o'ta mahobatlilik, jiddiy qiyofasi, odamlarda hadik tuyg'usini uyg'otishga qaratilgan. Fir'avnlarning ehromlari – ulkan piramidalar shular jumlasidandir. Bunday piramidalarning boshlang'ich ko'rinishi mastablar deyilib, kursisimon qilib qurilgan. Shu asosda dastlabki piramidalar zinasimon bo'lib, tepaga qarab ingichkalashib borgan va uchqur bo'lib yakunlangan. Klassik ko'rinishdagi piramidalar ushbu zinasimon bo'shliqlarni to'ldirish hisobiga yuzaga kelgan.

Xususan, IV sulola vakillari Xufu (Xeops), Xafra, Menkauralarning piramidalari shunday klassik piramidalardir⁴. Piramidalar yaqinida mazkur fir'avnlarga baqishlangan ibodatxonalar qurilib, ularning devorlarida o'sha fir'avnlarning hayoti, botirliklari, g'alabalari ilohiylashtirilgan shakllarda bo'rtma tasvirlarda ishlangan.

Misrning haykaltaroshlik san'atida yetakchi xususiyat obrazlarning frontalligi (ya'ni yuzi, oldi bilan tomoshabinga qaratilgani) o'ta sokin qiyofasi bilan belgilanadi. Ilohiy zotlarni, ilohiylashtirilgan fir'avnlarni, ularga yaqinlashtirilgan zodagonlarni haykaltarosh ideallashtirishga qudratli, xotirjam va shohona ulug'vor qiyofada tasvirlashga harakat qilgan. Fir'avn Xafra, zodagon Raxoteplarning tasvirlari buning yaqqol misolidir⁵. Shu bilan birga xizmatkorlar, oddiy odamlarning rang bo'yoq yoki bo'rtma tasvirlarida aniq ifodalangan realizm, harakatlarning tabiiyligini ifodalash ko'zga tashlanadi.

Tasviriy san'atda qadimgi Misr ustalari asta sekin shartlilik talablaridan ozod bo'la borib, dinamizm usullariga o'ta boshladilar. Endi tana, yuz tabiiy harakatda ifodalana boshladi. Yozib o'tirgan kotib, qishloq oqsoqoli Kaaperlarning haykallari buning misolidir. Maqbaralar va ibodatxonalarning devorlaridagi releflar, rang-bo'yoq tasvirlarda shu xususiyat kuzatiladi. Masalan, mushtlashayotgan qayiqchilar, ish ustidagi hunarmandlar, dehqonlar, cho'ponlar, baliqchilar, tobut ketidan borayotgan azador yig'lovchilar (giryandalar) – Sakkar ibodatxonasi (Gizadagi) tasvirlar shunday hayotiyliigi bilan ajralib turadi.

Misr san'atining rivojlanish bosqichlari Misr tarixining xronologik davrlariga mos keladi.

1. Eng qadimgi davr - eramizdan avvalgi V- IV ming yillikning oxiri. Urug'chilik tuzumining yemirilishi va quldorlik munosabatlarini shakllanish davri.

⁴ Кацнельсон И.С. Тутанхамон и сокровища его гробницы. М., 1979.

⁵ Нейхартд А.А. Шишова И.А. Семь чудес света. Л., 1966.

2. Qadimgi davr - eramizdan avvalgi IV- III ming yillikning oxiri. Markaziy hokimiyatning mustahkamlanishi va o'sha davrga xos bo'lgan san'at shakllarining yuzaga kelish davri.

3. O'rta davr - eramizdan avvalgi III ming yillikning oxiri - I ming yillikning o'rtalari. Markaziy hokimiyatning yemirilishi.

4. Yangi podsholik davri - eramizdan avvalgi II ming yillikning 2- yarmi - I ming yillikning boshlari.

5. Says davri (yoki Ptolomeev) – eramizdan avvalgi VI asrdan boshlanadi⁶.

Misr tarixining davrlarga bo'linishidan kelib chiqib, shuni ta'kidlash kerakki, eng qadimgi davrda ham urug'chilik tuzumining belgilari saqlanib qolgan bo'lsada, asta-sekin san'atning deyarli barcha turlari paydo bo'la boshladi. Bu davrda paydo bo'lgan me'morchilik san'ati usullarining ba'zilari keyingi davrlar me'morchiligida ham saqlanib qolgan.

Xefren piramidasiga alohida to'xtalib o'tish kerak. Bu yerda fir'avn Xefrenning haykali topilgan. Umuman olganda Gizada 3 ta Xeops (balandligi 137m), Xefren (balandligi 136,5 m.), Mikerin (balandligi 66 m.) piramidalari bor⁷. Bu davrda birinchi marta Xefren qabri yonida katta sfinks haykali paydo bo'lganligini ham alohida ta'kidlash lozim.

Keyingi davrlardagi piramidalar unchalik ulkan qilib qurilmagan bo'lsada, ularga xos bo'lgan barcha belgilar saqlanib kolgan. Ular bilan birga quyosh xudosi Raga atalgan ibodatxonalar quriladi. Fir'avn Niuser tomonidan Abusirda qurilgan Ra ibodatxonasi bunga misol bula oladi.

O'rta podsholik davrida qurilgan ibodatxonalarda jasad kuyilgan xona piramidalarga birlashib ketgan bo'lib, asosiy kirish joyi alohida ajralib turadi. Bularning oldingi davr me'morchiligidan farqi shundaki, bu binolarning kirish qismida ustunlar o'rnatilgan.

⁶ Матъе М.Э. Искусство Древнего Египта. М., 1962.

⁷ Кацнельсон И.С. Тутанхамон и сокровища его гробницы. М., 1979.

O'rta podsholik davridagi qabrlarda, ibodatxonalarda ko'plab tasvirlar saqlanib qolgan, ular uchun narsalarni realistik-haqqoniy tasvirlashga o'rinish juda xarakterlidir. Bu realistik tasvirlarni biz fir'avn Amenxotep Sh va boshqa haykallar orqali yaqqol ko'ramiz. Shuningdek, san'atning boshqa janrlarida ham realizm ancha kuchli bo'lgan.

Keyinchalik yangi ko'rinishdagi ibodatxonalar paydo bo'la boshladi. Ular uchun ustunli, ochiq hovli va qabul marosimini utkazishga muljallangan zalning mavjudligi xosdir. Ibodatxonalar devor bilan o'rab olinib, kirish joyi sfinkslar, fir'avn yoki xudo Amon tasvirlari bilan bezatilgan. (Masalan, Kerkesdagi Xonsu ibodatxonasi, Kornogdagi va Lunsardagi Amonga atalgan ibodatxonalar). Bu davrd gorlardagi ibodatxonalarning (Abu-Simbeldagi Amon ibodatxonasi) mavjudligini aytib o'tish kerak.

Arab dunyosining madaniyati, san'ati taraqqiyotida misr ham katta rol o'ynaydi. Boqdod xalifasining Misrdagi noibi ibn Tulun 9 asrda Misrda o'z sulolasi hukmronligiga asos soldi. U kurdigan binolardan mashhuri ibn Tulun machitini esga olish mumkin.

Qadimgi Misr san'ati o'zining boy va murakkab taraqqiyot yo'lida jahon aqlini lol qoldiruvchi ulkan umumbashariy meros yaratib qoldirgan. Unda ilk bosqich ilohiylashtirilgan va ulkan mahobatli hajm va shakllardan o'ta insoniy, real tasvirlargacha taraqqiyot bosqichlari kuzatiladi. Misr san'ati uslubining ta'siri keng tarqalgan. hozirgacha ayrim unsurlari hayotimizda uchrab turishi buning yaqqol misolidir.

Mesopotamiya san'ati.

Mesopotamiya Kavkazorti Arman toqlaridan Fors qo'ltiqigacha, Eronning Zachros toqidagi Siriya cho'llarigacha qadimgi ikki daryo (Dajla va Eofrot) oraliqidagi erlardan iborat mamlakat bo'lib, uni yunonlar Meso – "oraliq", potam – "daryo" so'zlaridan qo'shma so'z yasab ataganlar. Ruscha "Dvureche"⁸, o'zbekcha "Ikki daryo oraliqi" atamaları ham yunonchanning o'zgarmalaridir.

⁸ Брентъес Б. От Шанидара до Аккада. М., 1976.

Evrot (qadimgi Shumer tilida Buranun, akkad tilida Purattu) 2700 km uzunlikdagi daryo, Dajla (Idigna) akkadcha (Idiklat) – 1900 km bo'lib, Arman toqlaridan boshlanadi va quyilish qismida deltalari qo'shilib ketadi, suvi Fors qo'ltiqiga quyiladi.

Mesopotamiyaning ilk sivilizatsion taraqqiyot bosqichlari:

Ovchilik – termachilik - 10000-7000 yillargacha (Karim-shahar yodgorliklari bosqichi);

Natufiya madaniyati – 7000 yillar. Bu davr Natufiya, Ganj-zara, Mireybit, Chayonyu yodgorliklarida o'rganilgan.

Ilk dehqonchilik madaniyati – Xassuna, Jarmo, Chatal –Xyuyuk, Beyda, Xalaf – 6000-5000 yillar;

Ilk shahar – Ierixon 5000-4000 yillar

Ilk metall – Ubeyd, Shumer sivilizatsiyasi bosqichlari – 4000-3000 yillar.

Bu manzara Old Osiyo hududlari bo'ylab Iordaniya, Mesopotamiya, Zagros toqlarining harbiy yonbaqri, Anadolu yarimoroli (Kichik Osiyo) uchun umumiy xususiyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

Mil.avv. VII-VI ming yilliklarda Jarmo madaniyati markazi kabi ilk qo'rg'onlar paydo bo'lgan dehqonchilik va uy chorvachiligi tez rivojlangan. Toshidan o'yilgan va loydan sopol idishlar ko'paygan. Ilk davr tosh, sopol haykalchalar ayniqsa ayol ma'buda tasviri bo'lmish sopol haykalchalar hosildorlik, unum, ko'payish ramzi sifatida diniy e'tiqod darajasiga chiqqan. Bulardan tashhari ibtidoiy san'at namunalari orasida turli hayvonlarning totem (genetik “ota” yoki “ajdod” ramzi ma'nosidagi) hayvonlarning haykalchalari uchraydi. Ibtidoiy zebziynat buyumlari, o'yinlarning toshlari - bularning barchasi qadimgi Mesopotamiyada nozik did, shunga monand san'at yo'nalishlari rivoj topganidan dalolatdir.

San'at dunyosini Mesopotamiya uchun u yerda yashagan xalqlar uchun diniy qarashlardan ajratib tasavvur qilish qiyin. Avvalo Mesopotamiyada politeizm – ko'pxudoli dinlar amal qilgani ta'kidlanishi lozim.

Ayniqsa, eng qadimgi Mesopotamiya – shumer davri uchun politeizm yetakchi o'rin to'tgan va shu bilan bog'liq holda san'atda ham o'z aksini topgan.

Mesopotamiya san'atini shartli ravishda 5 ta katta davrlarga bo'lishimiz mumkin⁹:

1. Eng qadimgi davr - eramizdan avvalgi U ming yillik oxiridan - 1U ming yillik oxirlarigacha.

2. Shumer-akkad davri - eramizdan avval 1U ming yillik oxiridan eramizdan avvalgi Sh ming yillik o'rtasigacha.

3. qadimgi Vavilon davri - eramizdan avvalgi II ming yillik.

4. Assuriya davri - eramizdan avvalgi 1000-600 yillar.

5. Vavilon davri - eramizdan avvalgi 600-538 yillar. qadimgi Mesopotamiya madaniyati kushni mamlakatlar va xalqlarga juda katta te'sir ko'rsatdi. Ikki daryo oraliqida yaratilgan madaniyatning ko'p yutuklari Xetlar orqali yunonlarga, ulardan esa Ovrupaning boshqa xalqlariga tarqaldi. Biz foydalanayotgan ko'pgina madaniy yutuqlar qadimgi shumerliklar va vavilonliklarga ma'lum edi, bu yutuqlar ulardan boshqa xalqlarga o'tdi va shu tariqa boshqa xalqlarga utib taraqqiy etib bordi. Bu yerda biz yozuvni, adabiyotni, matematikani, astrologiyani, tibbiyotni, kimyoni va boshqalarni nazarda tutmoqdamiz. Ushbu ma'lumotlarni L.Lipin va A.Belovlarning "Glinyanoe knigi" (L., 1956) kitobi orqali bilib olish mumkin. Ma'lumki, eng qadimgi davridayoq urug'chilik tuzumi emirilib, mulkiy tengsizlik paydo bula boshlagan. Tel-Xalad Al-Ubayddagi, Uruk va Jemdet-Nasrdagi qazishmalar shuni ko'rsatdiki, bu paytda shumerliklar kichikrok qishloqlarda yashaganlar, kulolchilik ancha taraqqiy qilgan. Sopol idishlar turli rasmlarga, tasirlarga boy, ularda qadimgi shumerliklarning moddiy va ma'naviy turmushi, ularning diniy qarashlari va boshqalar o'z aksini topgan. Bu davrda ilk diniy inshootlar - tolos (mavzoleylar), shuningdek, ibtidoiy yozuv shakllari tushirilgan muqrlar paydo bo'ldi¹⁰.

⁹ Брентъес Б. От Шанидара до Аккада. М., 1976.

¹⁰ Кондратов А.М. Погибшие цивилизации. М., 1968.

Nineviyadagi saroylarda birinchi marta ganch o'ymakorligi paydo bo'ldi. Bu sohada Ashshurbanipal kutubxonasi alohida ajralib turadi, unda mashxur "sher ovi xonasi" bo'lib, u erda rassom xayvonlarni shunchalik maxorat bilan ishlanganki, ular qakikatdan ham qadimgi Sharq san'ati durdonalari sirasiga kiradi.

Mesopotamiya san'atida Yangi-Vavilon davri alohida o'rin tutadi. Bu paytda shaharlar qurilishi yuksak taraqqiy etdi. Ayniqsa Navuxodonosor saroyi va Marduk xudosi ibodatxonasi dunyoning etti mujizalaridan biri hisoblanadi.

Xetlar, Urartu, Kichik Osiyo, Midiya, Axmoniyalar, Ellinizm, Parfiya va Sosoniylar san'ati

Xetlar va Midiya mamlakatlari san'ati ko'pgina o'xshashlikka ega. Ayniqsa shaharlar qurilishi, qoyalardagi qabrlar, naqshchilik va boshqalarda bu yaqinlik ancha sezilarlidir. Ular san'atiga xetlar va assuriyaliklarning ta'siri kuchli bo'lgan, chunki ular o'rtasida doimo urushlar bo'lib turgan. Me'morchilikda yetakchi o'rinni saroylar va ibodatxonalar qurish egallagan, shuningdek, monumental rassomlik, naqshchilik xaykaltaroshlik ancha taraqqiy etgan. hunarmandchilik rivojida harbiy kurollar yasash va badiiy hunarmandchilik buyumlarini yaratish yetakchi o'rin to'tgan. Midiya uchun ochik maydonlarda olov ibodatxonalari kurish xarakterli bo'lib, bu zoroastrizm - otashparastlikning yoyilishi bilan bog'liqdir. Armanistondagi yodgorliklar (Karmir-Blur, Erebuni, Argishtixinili) Urartu madaniyati bilan tanishishda juda muhim hisoblanadi. Midiya sana'ti bilan tanishishda esa Ziviyadan topilgan xazina (eramizdan avvalgi IX-USh asrlar) alohida o'rin tutadi. Unga asoslanib "ilon uslubi" haqida tushuncha olish mumkin, bu uslub kimmeriylar va skiflar san'atida ham uchraydi.

KICHIK OSIYO SAN'ATI

Eramizdan avvalgi IX-IV asrlarda Kichik Osiyoda bir qancha kichik davlatlar (Frigiya, Likiya, Paflogoniya) mavjud bo'lib, ularning san'ati qo'shni xalqlar san'atiga o'z ta'sirini o'tkazdi¹¹.

¹¹ Кошеленко Г.А. Городской строй греческих полисов Западной Парфии. ВДИ. 1960, №4.

Bu birinchi galda qoyalardagi qabrlar bo'lib, ularning ko'rinishi turlicha bo'lgan. Qoyalarni mohirlik bilan o'yib yasalgan bu diniy inshootlar qadimgi toshga ishlov beruvchi ustalarning yuksak mahoratidan darak beradi.

Umuman olganda Kichik Osiyo yodgorliklari, uning san'ati Sharq (xettlar, forslar, hindlar) va harb (Krit-Miken, Yunoniston) madaniyatlari o'rtasidagi aloqalarni o'rganishda ham katta ahamiyatga ega.

XETT PODSHOLIGI SAN'ATI

Xetlarda ayniqsa shahar qurilishi, mudofaa inshootlari kurish kuchli taraqqiy etgan, ular, shuningdek toshga ishlov berishga ham ancha moqir edilar. Toshlar kal'alar; kurishda ishlatilgan, undan xettlar turli tasvirlarni, haykallarni yasashda, shuningdek, ustunlarni tiklashda foydalanganlar. Xettlar saroylar va ibodatxonalarni bit-xilani tipida qo'rganlar, bu me'moriy uslub keyinchalik boshqa xalqlar tomonidan ham o'zlashtirib olindi. Masalan, Xolchayondagi saroy shu printsipta qurilgan). Xettlar, shuningdak, ochik maydonlardagi qoyalarda ham ibodatxonalar ko'rganlar (Yazili zal), ularda turli tasvirlar: bosh xudo va xettlar xudosi o'rtasidagi nikoq marosimi tasviri, xett jangchilarining jangovor yurishi va boshqa tasvirlar uchraydi. Aylanayotgan Quyosh diskasining tasviri birinchi bo'lib xettlar tomonidan yaratildi. Bundan keyinchalik ahamoniylar keng foydalandilar. Xett tasviriy san'ati, uymakorligiga ham kurs ishi alohida e'tibor berishlari kerak.

AHMONIYLAR, ELLINIZM, PARFIYA, SOSONIYLAR DAVRI SAN'ATI

Ahamoniylar davri san'ati 3 davrga bo'linadi¹².

1. Pasargad davri - eramizdan avvalgi 559 - 530 yillar.
2. Persepol davri - eramizdan avvalgi VI asr oxiri - V asr oxiri.
3. Suzan davri - eramizdan avvalgi V asr oxiri - IV asr.

Kir hukmronlik qilgan davrda me'morchilikda saroylar qurish alohida o'rin tutgan. Kirning saroyidagi rasmiy qabul zali 30 ta ustunli bo'lgan, uni bezashda turli rangli toshlar ishlatilgan, zalga kiraverishda Kirning tasviri tushirilgan.

¹² Уилбер Д. Персеполы. Археологические раскопки резиденций персидских царей. М., 1977.

Bu ustunli zal bizning davrimizgacha etib kelmagan, u bogda joylashgan bo'lib, uning kirishismi uzun, tugri burchakli binodan boshlangan. Kirish joyida qanotli ho'kiz haykallari bo'lgan, ulardan 2 tasining yuzi odamnikidek bo'lgan. Bu saroy qurilishida Assuriya, Xettlar, Urartu me'morchiligi ta'sirini sezish mumkin.

Persepol davrida ham saroylar qurish keng ko'lamda olib borildi. Bu davrga oid eng hashamatli saroy Doro I saroyi bo'lib, u haqli ravishda fors me'morchiligining durdonalaridan biri hisoblanadi. 36 ustunli zal (akad) uch tomondan ayvonlar bilan uralgan bo'lib, ularga shimoliy va sharqiy tomondan turli tasvirlar bilan bezatilgan zinapoyalar qo'shilgan. Bu zalga qushni bo'lgan 100 ustunli zalning kirish qismida quqiz haykallari to'rgan. Budavrga mansub yodgorliklardan biri Doro mavzoleyidir.

ELLINIZM DAVRI SAN'ATI

Bu davr yunon-makedon qushinlarining Sharqqa harbiy yurishi va Old Osiyo hamda O'rta Osiyoning A.Makedonskiy qoqonligi tarkibiga kirishi bilan boshlanadi. Old Osiyo mamlakatlariga yunon va rim madaniyatining ta'siri kuchli bo'lgan. Ellinizm davrida yunonlar tomonidan bosib olingan joylarda bir qancha shaharlar barpo etildi. Ular ichida Misrdagi Aleksandriya shahri va O'rta Osiyo hududida qurilgan shaharlarni aytib o'tish mumkin. Old Osiyodagi ellinistik shaharlar xakida aniqroq tasavvur olish uchun Palmir shahriga to'xtalib o'tish lozim. U erdagi shahar tuzilishi, ibodatxonalar, teatr, san'at binosi, yashash joylari va mavzoleylar bizga ellinizm davri shaharlari haqida aniq tushuncha olishimizga yordam beradi.

PARFIYA SAN'ATI

(ERAMIZDAN AVVALGI III – ERAMIZ III ASRLARI)

Eron hududidagi Parfiya davlati eramizdan avvalgi III asrda Selevka davlatidan ajralib chiqqan. harbiy Parfiya madaniyati va san'ati anon va rim madaniyatining kuchli ta'siri ostida bo'lgan bo'lsa, sharqiy Parfiya hududida bu ta'sir unchalik kuchli bulmagan. Parfiya san'ati shartli ravishda 2 davrga bulanadi. Birinchisi, ellinizm ta'siri kuchli bo'lgan davr bo'lsa, ikkinchisi, ellinizm va madaniyati ancha cheklangan davridir.

Parfiya me'morchiligida shaharlar qurilishi yetakchi o'rin tutadi, shahar ikki kismdan: shahardan (arno) va uning atrofidagi qishloqlardan (anteri) iborat bo'lgan. Yashash joylari va saroylar qurilishida to'g'ri burchakli ayvonlar paydo bo'lib, ular binoning asosiy qismini tashkil etgan.

Bu ayvonlar turli naqshlar bilan bezatilgan". Ayniqsa, Ashshur, Ktesidon va boshqa saroylar bu jihatdan e'tiborga loyiqdir. Ularga devoridagi naqshlar, uyma ganchkorlik va boshqa me'moriy bezaklar o'ziga xos salobat bag'ishlagan. Ayvonlar hovliga qarab qurilgan. Kresifon saroyida 2 ta ayvon bir yo'nalishda qurilgan bo'lib, ularning biriga aylana koridorli ibodatxona qo'shilgan bo'lgan.

ERONNING SOSONIYLAR DAVRI SAN'ATI (III – IV ASRLAR)

Eron san'atining to'rt bosqich e'tirof etiladi. Midiya, ahamoniylar, parfeniy va sosoniylar davri san'ati. Bularning har biri shu qadar ko'p umumiyliklarga egaki, to'rtala bosqich yagona taraqqiyot chiziqini tashkil etadi deb hisoblash mumkin. Yagona jarayonning boshlanish proto eron san'ati deb baholanadi. Uning asoslari bori butunisicha qadimgi Sharqning, ayniqsa Ashshur va Elam hamda Urartu va Kichik Osiyo maqalliy san'atlarining obraz va kompozitsiyalari ta'sirida yuzaga kelgan.

Eron san'atining ilk bosqichlardan chiqib avj pallasiga kirish, yuqori nuqtaga erishuvi ahamoniylar davri san'atida namoyon bo'ladi. Ayni ahamoniylar davrida san'at mazkur lokal (mahalliy) san'atlar obrazlari va kompozitsiyalarining sinteziga, o'zaro singishib ketgan yangi qiyofasini yaratdi.

Eron san'atining keyingi bosqichi "parfeniy oraliq"¹³ nomini olgan bo'lib, san'atda murakkab harshilik paydo bo'ladiki va bu qolatning barcha tashkil qiluvchi alomatlari qaligacha yaxshi o'rganilmagan. Biroq qadimiy bosqichning parfeniy san'atidagi izlari ko'plab unsurlarda mavjudligini inkor etib bo'lmaydi.

¹³ Уилбер Д. Персеполы. Археологические раскопки резиденций персидских царей. М., 1977.

Eron san'atining qadimiy davrlari so'ngida (to'rtinchi bosqichda) sosoniylar davri yana bir avj (kulminatsiya) pallasi bo'lgan. Sosoniylar davri san'atida ahamoniylar davri san'atining uyg'onishi (renessansi)ni hamda to'rt bosqichli qadimiy san'at taraqqiyot yo'lining oxirini ko'rish mumkin. Zero, sosniylardan keyin Eronda islom davri san'ati davri boshlanadi.

Eron san'atida uzoq asrlar davomida ba'zi kanoniy obrazlar takrorlanib kelgan. Eng muhimi san'at asarining materiali (tosh, yoqoch, metall, ...) qanday bo'lishidan qat'iy nazar doimiy (kanon) belgilar an'anaviyligi davom etavergan.

Eron san'atining eng qadimgi qatlamiga mansub Zivie yodgorliklari mil.avv. VII asrga oid hisoblanadi. Zivie qazinasida oltin, kumush bronzadan yasalgan bo'lgan.

Eronning 3-4 asrlardagi san'ati quldorlik jamiyati san'ati bo'lib, bu jamiyatning inqirozi san'atga ham ta'sirini ko'rsatdi. Lekin feodal munosabatlarning rivojlanib borishi bilan madaniyat va san'at ham taraqqiy eta boshladi. Antik davrdagi yirik shaharlar rivojlanishda davom etdi, yangi-yangi saroylar, qasrlar (Feruzobod, Ktesifon va boshqalar) kad kutardi. Ular Parfiya kasrlariga uz tuzilishi bilan ancha o'xshab ketadi, lekin sosoniylar me'morchiligida gumbazsimon qilib yopilgan rasmiy qabul zallari paydo bo'ldi.

Sosoniylar san'ati Eronning qadimgi san'atining eng yaxshi yutuklarini o'ziga mujassamlashtirdi, uni yanada boyitdi. Ushbu davr san'ati haqli ravishda Eronning yillab taraqqiy etgan san'atining eng yuqori bosqichi deb tan olindi.

O'rta Osiyoda yunon-baktriya, kushon, eftalit, turk xoqonligi davlatlari davrlarining san'ati

Mashhur sharqshunos Richard Fray qadimgi O'zbekistonning o'rtaliq hududini tashkil qilgan So'g'diyonani "Markaziy Osiyoning yuragi" degan edi. O'zining geografik o'rniga ko'ra Markaziy Osiyoning o'zi ham Evroosiyo qit'asining markazi hisoblanadi va insoniyat tarixining barcha bosqichlarida harb va Sharq, Shimol va Janub o'rtasida tarixiy-madaniy, murakkab munosabatlarning hal qiluvchi bo'g'ini bo'lib kelgan.

Ko'chmanchi va cho'pon-cho'liqli chorvachilik mintaqasi bilan yonmayonlik bronza davridan boshlab Evrosiyoning o'rtaliq kengliklari bilan o'troq dehqonchilik voqalarining qo'shnichiligi davlatchilikning, madaniyatning va aholi mentaliteti va madaniyatining asosiy xususiyati bo'lib kelgan. qolaversa, sharq va harbn birlashtirgan Buyuk ipak yo'li ham ko'chmanchi chorvadorlar yashagan va doimiy harakatda bo'lgan trassalar bo'ylab shakllangan.

Bu yo'l ustida Buxoro, Samarqand, Urganch, Toshkent singari yirik shaharlarning mavjudligi aynan O'zbekiston hududlarining madaniyat va badiiy jarayonlardagi yetakchi mavqeidan dalolatdir.

Bu shaharlar o'z o'rnida butun mintaqa san'ati va madaniyati yutuqlarini ta'minloqchi ijodiy qoyalarning ham beshigi bo'lgan. Buyuk ipak yo'lida bu va boshqa ko'plab shaharlar madaniyat yutuqlarining retranslyatorlari bo'lgan. Bronza davri, ilk temir davri, ilk hududiy davlatchilik jarayonlari, dastlabki yirik saltanatlar davri (ahamoniylar, chet el bosqinchiligi (yunon-makedon bosqini)), ellinizm, Ko'shanlar saltanati, Xorazmning qadimiy davlatchilik bosqichlari, milodiy V-VI asrlardagi xion, kidar, eortal davlatlar davri, ilk o'rta asr hududiy davlatlar davri, islom davri va o'rta asrlar – mazkur ketma-ketlikdagi barcha bosqichlarda Markaziy Osiyo sivilizatsion jarayonlari taraqqiyoti, san'at sohalarining ichki dinamikasida uzluksizlik, mohiyat yagonaligi, ifoda usullari va vositalarining xilma-xilligi barobarida mohiyat yagonaligi kuzatiladi. Bu o'rinda islom davri san'atining mazmun va shakli orqali kirib kelgan san'at sohalari o'ziga xos ko'rinish olganini hisobga olgan holda, shu san'atning ichki mazmuni maqalliy islomgacha davr san'atining transformatsiyalashgan unsurlari bilan boyitilgani alohida diqqatga sazovor. Birgina musiqa san'atida buni yaqqol kuzatish mumkin. Mazmunda islomiy davr aks etgani bilan undagi shakl ijro yo'llari, usullar qadimiy asoslarini saqlagan holda davom etmoqda.

1.3.ARXEOLOGIK QAZISHMALARDA TOPILGAN IBTIDOIY SAN'AT NAMUNALARI.

Bugungi kunda bir necha avlod tarixchilar, arxeologlar, san'atshunoslar, arxitektorlar mehnati samarasi tufayli ibtidoiy san'at tarixi, Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekiston xalqlari san'ati tarixi bo'yicha yetarli darajada ma'lumotlarga ega bo'ldik.

Mil.avv. VII-IV asrlarga oid ilk dehqonchilik madaniyati san'atiga xos xususiyatlardan biri yuksak darajada sifatli sopol buyumlar bo'lib, ularning sirti geometrik uslubda rang bo'yoq naqshlar bilan bezatilganligidir¹⁴.

Bu kabi sopol buyumlar Misr, Mesopotamiya, qindiston (Xarappa), Xitoy (Yanshao) va O'rta Osiyoda Anau, Saraz kabi madaniyat obidalarida kuzatilgan.

Miloddan avv. III-II ming yilliklarning boshlarida Old Osiyo mintaqasidagi ayniqsa Siriya (Xett) hududlaridagi asrlab davom etgan qurqoqchilik tufayli aholi migratsiyasi boshlanib, yirik ko'chkinchilik to'lqinlari ro'y berdi. Ko'chkin aholi Eron, O'rta Osiyoning janubiy hududlari, Afqoniston, qind daryosi vodiysi kabi erlarga tarqaldi. Natijada Markaziy Osiyo san'atida ham muhim innovatsion jarayon yuz berdi.

Saroy-ibodatxona tipidagi rivojlangan monumental arxitektura bilan birga monumental va amaliy san'atning Bobil va Assiriya san'ati namunalaridan qolishmaydigan ajoyib obidalar paydo bo'la boshladi. Shu jumladan, devorlarga ishlangan rang-bo'yoq tasvirlar, toshdan yo'nilgan haykallar kabi yodgorliklar XXI asr boshida Murqob daryosining etagida joylashgan hozirda qoraqum barqanlari orasida ko'zdan qoyib bo'lgan Margush davlatining poytaxti xarobalarida topildi. Ushbu ilk shahar madaniyati yodgorligi mil.avv. III-II ming yilliklar bilan belgilanadi. Shunday yodgorliklardan biri Turkmanistonning mazkur hududidagi Gonurdepedir. O'zbekiston hududlarida Gonurdepe bilan bir davrga Sopollitepa va Jarqo'ton (Surxondaryo) yodgorlik majmualari to'g'ri keladi.

¹⁴ Уилбер Д. Персеполы. Археологические раскопки резиденций персидских царей. М., 1977.

Afg'onistonning shimolida esa Gonurdepe va Sopolli madaniyatlari bilan tengdosh Dashli arxeologik majmuining uchinchi bosqichi mavjud. Fanda ushbu uch mintaqa madaniyati Baqtriya-Marg'iyona majmui nomini olgan. Shu davrning qo'rg'onlari va shaharlarida arxeologik jihatdan olov kulti hamda zardushtiylkdagi muqaddas ichimlik xaoma bilan bog'liq. E'tiqod izlari ham topilgan. Bu davrda (mil.avv. III-II ming yilliklar) muqr tayyorlash bilan bog'liq o'ziga xos san'at yo'nalishi shakllangan. Muhrlar bronzadan quyma, kumushdan yasalgan tosh va suyakdan ishlangan shakllarda uchraydi. Metalga ishlov berish, ayniqsa bronza qotishmasining sifatli darajasini ta'minlagan holda yasalgan piyola, kosa, qadaq kabi buyumlar, qimmatbaho metaldan zargarlik usullari bilan yasalgan zebu-ziynat buyumlari – bular hammasi turli barelef (bo'rtma) tasvirlar bilan bezalgan bo'lib, o'sha davrning e'tiqodiy, mifologik tasavvurlarini o'zida aks ettirgan¹⁵.

Bu davrning kulolchilik san'ati charx yordamida yasalgan yupqa, nafis ro'zg'or asbobu-anjomlaridan iborat bo'lib, ularning xillari turli tuman. Bu esa idish-tovoqqa yuklangan vazifalarning turli tumanligini, boshqacha qilib aytganda, xo'jalik takomilining yuksak darajasini ko'rsatadi.

Mil.avv. II ming yillik oxiri I ming yillik boshlarida Markaziy Osiyoning etno-madaniy manzarasi tubdan o'zgara boshladi. Bunga sabab shu davrda ro'y bergan asriy qurqoqchilik bo'lib, qadimgi dehqonchilik markazlari inqiroziy qolatga keldi. Chorvador cho'l mintaqasidagi vaziyat oqirlashib, chorvador aholi janubga tomon siljiy boshladi. Bu aholi xo'jalik usuliga ko'ra cho'pon-cho'liq chorvadorlar bo'lib, ularning moddiy madaniyat majmui fanda andronolla va sруб madaniyatlari deb ataladi. Bu qabilalarning O'rta Osiyoga kirib kelishi ilk temir asrida madaniy jarayonlarning o'ziga xos yangi innovatsiyasini yuzaga keltirdi. Bu davr bronza asridagi Gonurdepe, Jarqo'ton kabi katta ko'lamli ilk shahar urbanistik markazlarining o'rniga ixcham, kichkina, lekin kuchli isteqkom qilingan mudofaa inshootlari mustahkam qal'alar paydo bo'lishi bilan belgilidir. Bunday qo'rqonlar odatda maxsus yaratilgan sun'iy tepaliklar (stilobat)lar ustiga qurilgan.

¹⁵ Прокофьев О. Искусство Индии. М., 1964.

Bundan maqsad dushman uchun ularni egallashni qiyinlashtirish edi. qo'rqonlarning ichki tarkibida yashash uchun moslangan xonalar, yordamchi xo'jalik bo'limlari, ibodatxona (odatda otashkada) kabilar mavjud bo'lgan. O'z-o'zidan ko'rinadiki, bunday mustaxkam qo'rqonlar hudud aholisini siqdira olmas edi. Demak, qo'rqonlar jamiyatda jiddiy ijtimoiy tabaqalashuvni aks ettiradi. Oddiy aholi esa qo'rqonlar atrofidagi hududlarda yashagan va mehnat qilgan. Bu davrda bronza asrida paydo bo'lgan buyumlardagi syujetli tasviriy san'at obidalari deyarli uchramaydi. Sopol buyumlar charxda emas, qo'lda yasaladigan qolatga keladi va qo'l sopol buyumlari sirtida geometrik naqsh bezaklar paydo bo'ladi.

Mil.avv. I ming yillik o'rtalarida yuqorida sanalgan o'lkalarning asosiy ko'pchiligi jahonning eng birinchi imperiyasi hisoblanmish Ahamoniylar saltanatiga qo'shib olingan. Bu davr san'atiga qadimgi Sharq hamda skif san'atlari unsurlarining bir vaqtda amal qilishi va ayrim unsurlarning qorishuvi xosdir. Skif san'ati deb ataladigan ulkan san'at obidalari majmui fanda animalistik yoki hayvon tasviri stili deb ataladi. Turmush anjomlari, zargarlik buyumlarining turli detallari mifologik yoki real hayvonlar shaklini aks ettirgani skif san'atining asosiy belgisi hisoblanadi. 1877 yilda Tojikiston hududlaridan topilib, savdo karvoni qo'lida qindistonga etib borgan va u erda antikvar buyumlar savdosi orqali Buyuk Britaniya qirolligi muzeyiga tushgan Amudaryo xazinasi tarkibiga kiruvchi qimmatbaho buyumlar ana shu skif animalistik san'atining noyob namunalaridir.

Mil.avv. 330 yilda makedoniyalik Aleksandr tomonidan mintaqaning bosib olinishi madaniy manzarada chuqur o'zgarishlarga olib keldi. San'at sohasida bu davr ellinizm deb ataladi (Ellada va ellinlar madaniyati – Gretsiyadagi madaniy viloyat nomidan olingan). Zardushtiylik o'lkada yetakchi maqomda bo'lishi bilan barobar Yunon xudolari, yunoncha falsafa va san'at Sharq o'lkalarida keng yoyila boshladi. Afqonistondagi Ko'kcha daryoning Amudaryoga quyilish joyi yaqinida joylashgan Ayxanum xarobalarida olib borilgan arxeologik qazishmalar bu shaharning o'z davrida chin ma'noda Yunon tipidagi shaharcha ekanini ko'rsatdi. Mil.avv. III-II asrlarda bu shahar o'zining teatri, gimnaziyasi, stadioni kabilan bilan mashhur bo'lgan.

Frantsuz arxeologik ekspeditsiyasi Ayxanumda ajoyib yunon arxitekturasini va tasviriy san'ati namunalarini topgan. Ellinistik san'atning O'rta Osiyodagi namunalari ko'proq janubiy rayonlardan topilgan. Yunon-baqtriya davrida medaler san'ati juda rivojlangan. Buni biz yunon-baqtriya tangalarida ko'rishimiz mumkin. Ularda o'ta aniq darajadagi portret san'ati namoyon bo'lgan. Kushon va Parfiya podshohliklari davrida davlatchilikning etnik yetakchi qatlami almashgani bilan lekin san'at sohasida estetik ideallar ellinistik ta'sirlarni asosan saqlab qoldi. Biroq Kushonlar saltanatining so'nggi bosqichlarida san'at sohasiga qindiston san'atining ta'sir elementlari kirib kelgani ma'lum.

Ayni shu Kushonlar va Parfiya podshohliklar davrida ellinistik ta'sir kamaya borib, san'atda sharqona tasvir uslubiy me'yorlari qayta tiklana boshladi. Bu davrga xos xususiyat san'at buyumlarida statik qolat, ideallashtirish ramziy ifodalar va shakllilik alomatlarining yetakchi o'ringa ko'tarilishidir. Parfiya tasviriy san'atiga xos bo'lgan frontal xususiyat tarqala boshladi. Tasvirlarda harakat dinamikasi emas, ruhiyatni aks ettirishga alohida e'tibor berilgan. Shunga o'xshash ruhiy-xissiy tasvir usuli ilk bosqich Xristian dini an'anasida ham mavjud.

Markaziy Osiyoning ilk o'rta asrlar madaniyati va san'ati bir qator yodgorliklardagi devoriy su'ratlarda yoqoch va sopol haykalchilik namunalarida ko'rinadi. Bular Afrosiyob, Panjkent, Varaxsha, Bolaliqtepa, Shaxriston, Kuyovqo'rqon, Ajnatepa kabi arxeologik yodgorliklarda o'rganilgan. Ushbu devoriy sur'atlarning mazmun turli tuman. Ba'zan ular real tarixiy voqealarni tasvirlasa, ba'zan Avestaga xos, ba'zan esa Budda dinining mativlarini ifodalaydi. Jumladan, Afrosiyob devoriy su'ratlarining kattagina qismi milodiy 654-655 yillarda Samarqand taxtiga chiqqan Varxumanni sharaflash uchun turli mamlakatlardan kelgan elchilik missiyalari va ularni qabul qilish marosimini – real tarixiy voqeani tasvirlaydi. Varaxsha devoridagi su'rat majmui esa sharqqa xos bo'lgan ov manzarasini ifoda etgan. Bolalikepa yodgorligidagi devoriy su'rat qandaydir real zifat manzarasini aks ettirgan.

Panjkent shahri xarobalaridan topilgan su'ratlar esa syujet jihatidan turlicha: ularda zardushtiylikka xos manzaralar, kundalik turmush ko'rinishlari, qandaydir mifologik yoki tarixiy jang manzaralari, epik asarlarning syujetlaridan olingan voqealar tasviri kabilardir. Bularning rang-bo'yoq tasvir usuli asosan tekis yuza uslubiga xos. Ya'ni tasvirdagi uzoqlashuvchi masofa nisbatini ifodalash usuli etishmaydi. Tasvirlar orasida Shaxriston xarobalaridan topilgan devoriy su'ratdagi go'dak bolani emizib to'rgan ona bo'ri tasviri alohida o'ringa ega. Buni ayrim olimlar Rim kapitoli bo'risining ta'siri deb baholashgan. Boshqacha yondashilsa, ona bo'ri va uni emib to'rgan go'dak tasviri mashhur qadimgi turkiy ashina urug'ining kelib chiqishi bilan bog'liq rivoyatga aloqador bo'lishi ham mumkin.

Sug'd tasviriyl san'atining namunalari, musiqa asboblari, raqs uslublari va musiqiy asarlar buyuk ipak yo'li orqali Xitoy va Yaponiya saroylari va madaniyat markazlariga qadar etib boradi. Harb yoki harbiy yo'nalishda sug'd savdogarlari faktoriyalari Konstantinopolga qadar tarqaydi. Ilk islom davrida ham sug'd san'atining ko'pgina naqshlarining namunalari to'reftika (qimmatbaho zargarlik), kumish buyumlar namunalari orqali harbiy Yevropaga qadar tarqalib Yevropa tasviriyl san'atiga ham ta'sirini o'tkazadi. Buning boisini buyuk ipak yo'llari bo'ylab so'g'd savdogarlarining yuksak mavqei tufayli tushunishimiz mumkin. So'g'd savdogarlari qadimiy turklar imperiyasida nafaqat xalharo savdo-sotiq jarayonlarini boshharganlar, balki buyuk xoqonlarning siyosiy maslaqatchilari vazifalarini ham bajarib kelganlar.

O'rta Osiyoning janubi va hozirgi Afg'oniston hududlarida tashkil topgan bu podsholik, eramizdan avvalgi 111 asrning o'rtalaridan Parfiya davlati bilan bir vaqtda Salavka davlatidan ajralib chiqqan. Yunon-Baktriya madaniyatida ellinizm madaniyatining ta'siri juda kuchli. Bu davlatda zarb etilgan tangalar, yunon tangalari uslubida bo'lib, tangashunoslik san'at darajasiga kutarilgan. Yunon-Baqtriya shaharlari ichida, hozirgi Afg'oniston hududida joylashgan, Oyxonim shahri alohida ajralib turadi. Shahar harobalari farang arxeologlari tomonidan ochib o'rganilgan. Bu davrda naqqoshlik, haykaltaroshlik, zargarlik va boshqalar kuchli rivojlangan bo'lib, ularda yunon madaniyati ta'siri yaqqol sezilib turadi.

Afg'oniston hududidagi badiiy madaniyat taraqqiyotini eramizning boshlariga ta'lukli bo'lgan yodgorlik - Begramdan topilgan arxeologik manbalar orkalni ham kurishiz mumkin. Kobul yaqinida joylashgan bu yodgorlikdan topilgan shisha idishlar, albastrdan kilingan buyumlar, fil suyagidan yasalgan buyumlar va bsshkalar Kushonlar davri san'ati haqida ma'lumot beradi.

Bu davr haykaltaroshligida hind-yunon-rim madaniyati uyg'unlashib qo'shilib ketgan. Gandaxor san'ati maktabining ta'siri ham kuchli bo'lib, o'ziga xos yo'nalishlar yaratilgan. Bu narsalar budda inshootlarida va ularni bezab turgan naqshlarda yaqqol ko'rinadi.

BUDDIZM SAN'ATI YODGORLIKLARI

Afg'onistondagi ilk o'rta asrlar davri san'ati buddizm davri san'ati ta'sirida rivojlandi. Qoyani o'yib yasalgan g'orga joylashgan Bomiyon monastiri Afg'onistondagi budda diniga oid eng yirik yodgorlikdir. Undagi xonalar bir necha qavatli bo'lib, gorga kiraverishda balandligi 37 va 53 metrli ulkan budda haykali turgan. Bu monastirning asosiy xonalari budda dini bilan bog'liq bo'lgan turli tasvirlar, naqshlar va haykallar bilan bezatilgan. Bu jihatdan u Panjikentdagi, Bolaliktepadagi shu turdagi yodgorliklarga o'xshab ketadi.

Fundikistondagi yodgorliklar Bomian tipidagi yodgorliklarning davomidir. Bu erdagi monastirlarda loydan yasalgan haykallar ko'p uchraydi. Qiz va o'smir obrazidagi haykallar 7-8 asrlardagi Varaxsha va Panjikentdagi topilmalarga ancha o'xshaydi. 6-7 asrlarga kelib buddizmning san'atga bo'lgan ta'siri ancha kamaydi. San'atda yangi obrazlar, qahramonlik eposlari va islom davrida ayniqsa keng tarkalgan boy naqshlar katta o'rin tuta boshladi. Xindiston haykaltaroshligi va naqqoshligi Afronistonning islom davrigacha bo'lgan tasviriy san'ati taraqqiyotining oxirgi boskichiga tugri keldi.

Musulmon xalqlarining VIII-XV asrlardagi san'ati

Atlantika qirg'oqlaridan Indoneziyagacha, O'rta yer dengizidan Nil daryosining yuqori oqimlarigacha bo'lgan katta hududda yashagan xalqlarning o'rta asrlardagi madaniyati va san'ati dunyo madaniyati taraqqiyotiga juda katta ta'sir ko'rsatdi.

Bu yuksak madaniyatning asosiy o'choqi Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari, Shimoliy Afrika va janubiy Ispaniya bo'lib, ular arablar asos solgan ulkan feodal davlat xalifaligiga birikkan edilar.

Bu xalqlarning eng katta xizmati shu bo'ldiki, ular antik davrdagi fan va san'atning eng yaxshi yutuqlarini saqlab, boyitib, keyingi avlodga yetkazib berdilar.

Arablarining 15 asr boshlaridagi siyosiy ittifoqi yangi din -islom dini ta'sirida edi va bu din tezda jahon dinlarining biriga aylandi¹⁶.

Mazkurinning asoschisi Muhammad payg'ambar va uning vorislari - xalifalarning dastlabki faoliyat ko'rsatgan yerlari Madina va Makka shaharlari edi. Muhammad payg'ambar asos solgan musulmonlar jamoasi tuzilajak musulmonlar davlatining asosi bo'lib, Arabistonni birlashtirishning diniy va siyosiy markazi bo'lib maydonga chiqdi. Lekin Muhammad payg'ambar faoliyat ko'rsatgan dastlabki davrlarda u taraqqiy qilayotgan yangi din joqil, qabilaviy dinlarga siqinuvchi ko'pgina arablar tomonidan qabul qilinmadi. Shuning uchun Muhammad payg'ambar va uning tarafdorlari 622 yilda Makkadan Madinaga ketishga majbur bo'ldilar. Bu ko'chish (hijr-arabcha bo'lib ko'chish degan ma'noni bildiradi) musulmon yil hisobiga asos qilib olindi. Ko'pchilik musulmon mamlakatlarida hozirgi paytda ham bu xijriy yil hisobidan keng foydalanadilar. 620 yilda musulmonlar butun Arabiston yarim orolini bo'ysundirdilar. Ka'ba shahri (musulmonyaarning muqaddas shahri) davlat markaziga aylandi. Muhammadning vorislari - xalifalar davlatining diniy va dunyoviy boshliqlari edilar. Dastlabki to'rt xalifa - Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali va undan keyin xalifalikni boshqargan. Ummaviylar sulolasi (661-750) hukmronligi davrida arablar Osiyo, Afrika va Janubiy-harbiy Ovro'pada katta hududlarni bosib oldilar. Arablarning harbiy qudratiga Vizantiya va Eron kabi qudratli qoqonliklar ham dosh bera olmadilar.

¹⁶ Веймарн Б., Кантерева Т., Подольский ... Искусство арабских народов. (средневековый период). М., 1960.

Arablar 640 yilda Vizantiyaga harshli bo'lgan Suriya va Falastinni, 642 yilda Misrni va keyingi yillarda Shimoliy Afrikani bosib oldilar. Buddan tashhari 622-651 yillarda Sosoniy sulolasi boshhargan Eron davlatiga tegishli bo'lgan barcha hududlarni qo'lga kiritdilar. Arab qo'shinlari shimoliy Afrikalik barbarlar bilan birga Preliy yarim oroliga qujum boshlaydilar. Arablar tomonidan Al-Andalus deb atalgan Ispaniyani ishg'ol qilish boshlandi va uning kattagina qismi bosib olindi.

Bu paytda arab qo'shinlari 8 asrning o'rtalarida butun O'rta Osiyoni ishg'ol etib, Xitoy chegaralarigacha yetib bordilar. Shu tariqa qisqa vaqt ichida ulkan feodal davlat - xalifalik tashkil topdi. Arablar va xalifalik tarkibiga kirgan boshqa xalqlar fan va madaniyatning, badiiy san'atning ko'pgina sohalarida katta yutuqlarni qo'lga kiritdilar.

Arablar jahon adabiyoti va she'riyatiga, falsafa va tibbiyotga, matematika va astronomiyaga, geografiya va tarixga va boshqa fanlar tarahayotiga katga hissa qo'shdilar, ajoyib va o'ziga xos san'at asarlari yaratdilar.

Musulmon xalqlari madaniyati dunyoning turli xalqlari madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatdi. G'arbiy Yevropa antik davr madaniyati bilan tanishishda ham musulmon xalqlarining roli katta bo'ldi.

651 yilda hokimiyat Abbosiyshar sulolasi qo'lga o'tdi va poytaxt Damashqdan Bag'dodga ko'childi. Lekin bu ulkan davlat tezda bir necha mustaqil davlatlarga bo'linib ketdi. Eron, Afg'oniston va O'rta Osiyoda tezda mustaqil davlatlar tashkil topdi. Xalifalik tarkibiga kirgan turli xalqlar o'ziga xos madaniyat va san'at yaratdilar. Ular madaniyati maqalliy o'ziga xoslikka ega, lekin shu bilan birga, feodal jamiyat taraqqiyoti shakllarining o'xshashligi, doimiy savdo va madaniy aloqalarning mavjudligi, yagona din va yozuv tizimi, yagona ququqiy va ijgimoiy qonunlar hamda boshqa belgilar tufayli san'atda butun islom olamiga xos bo'lgan umumiylik kuchlidir.

Arab xalqlari madaniyatining taraqqiyotida ularning Eron, O'rta Osiyo, Kavkazorti mamlakatlari bilan bo'lgan o'zaro aloqalari ham katta ahamiyatga ega bo'ldi. Arab tili faqat muqaddas qur'on tili bo'lib qolmasdan, undan ulkan qalifalikning turli burchaklarida yashagan, turli tillarda ijod qilgan olimlar, shoirlar va boshqalar ham foydalanganlar. Musulmon mamlakatlari me'morchiligida o'xshashliklar anchaginadir, bu ayniqsa diniy inshootlar qurilishida yaqqol seziladi. Bunday inshootlardan ayniqsa machitlarni eslatib o'tish kifoya. O'z tuzilishiga ko'ra unchalik murakkab bo'lmagan barcha machitlardagi meqrobalar Makkaga qibla tarafga qaratilgan. Machitlar yonidagi minoralar azon aytishga xizmat qilgan va qilmoqda.

Musulmon olamida oliy maktab - madrasalar tuzilishida ham ko'pgina o'xshashliklar mavjud. Ularning barchasi o'qish zali, toliblar yashaydigan xonalarga ega. To'g'ri burchakli qilib qurilgan bu madrasalarda maxsus machit - namoz o'qish joyi ham bo'lgan.

Dunyoviy tipdagi me'morchilik inshootlari : saroylar, savdo rastalari, hammomlar, karvonsaroylar va boshqa inshootlarda ham ko'pgina o'xshashliklar bor. Musulmon davri san'atida hattotlik ham yuksak taraqqiy etdi va bu san'atdan, naqqoshlikning bir turi sifatida, binolarni bezashda keng foydalanilgan.

Turk elining san'atiga xos bo'lgan soddalik, rang-baranglik va dinamizmi bilan eronzabon xalqlar shahar aqli estetikasidan farq qiladi. Dasht va shahar aqlining etnik qiyofalari, kiyim-kechagidagi farqlari kitob miniatyurasida ham o'z aksini topadi. Turkiy xalqlar miniatyurasida tabiat manzaralari keng o'rin egallaydi.

Bobning xulosasi shundan iboratki Ibtidoiy davrlarda san'atning paydo bo'lishi, uning insonlar hayotida tutgan o'rnini kundalik turmushda san'atning qay darajada ekanligi ushbu bobda atroflicha tahlil qilishga harakat qilindi. Bundan tashqari keyingi davrlarda san'atning janrlarga ajralishi va bu janrlarda yaratilgan ilk san'at namunalari haqida fikr yuritildi. Ibtidoiy san'atning o'ziga xos xislati shundan iboratki san'at asri namunalari soda va qo'pol.

Rasmlar qanday ko'rinsa shunday tasvirlangan. Musiqada esa asosan ibtidoiy jamiyatga xos juda kam turli musiqa asboblaridan foydalanilgan. ibtidoiy san'at namunalarini qoyatosh va g'orlardagi suratlarda, qabr toshlari va bitiktoshlardagi yozuvlarda, arxeologik qazishmalar natijasida topilgan. Idishlar va boshqa buyumlarda ko'rishimiz mumkin.

II.BOB Ibtidoiy tabobat.

2.1. Ibtidoiy tabobat tarixi.

Ibtidoiy tabobat qadimgi Misrda ancha rivoj topgan. O'rta podsholik davriga oid bir qancha manbalarda turli kasalliklarni davolash uchun retseptlar ro'yxati berilgan. Kuzatib hosil qilingan tajribalardan foydalangan Misr tabiblari hali qadimgi duo - afsunlardan tamomila qutula olmagan. Masalan, kasal bolalarni "davolash" da tabiblar, onalar va tarbiyachilar uchun maxsus tuzilgan udumlar to'plami atalgan. Bu to'plamda juda ko'p sehr - jodular bilan birga, o'ziga xos g'alati retseptlar, jumladan, ona sutini saqlash va ko'paytirish yo'llarini uchratish mumkin. Shunday qilib, davolashda dori - darmon bilan birga sehr - duolar o'qish, qaytariq qildirish kabi rasmlar ham qo'llanilgan. Ammo odam a'zolarining o'rganilishi (mumiyolash vaqtida murdani yorish bilan odam a'zolarini o'rganish ancha osonlashgan) tabiblarga odam organizmining tuzilishi va ishlashi to'g'risidagi masalaga nisbatan to'g'ri yondashish imkonini bergan. Shu tariqa, anatomiya sohasiga oid dastlabki bilimlar paydo bo'lgan va ular bir qancha anatomiya atamalarida o'z aksini topgan. Ba'zi tibbiy manbalarda davolashning o'ziga xos uslubi ham berilgan bo'lib, bunda tabibdan kasalni atroflicha ko'rish, kasal alomatlarini bilish, tashxis qo'yish va davolash usulini aniqlash talab etilgan. Aftidan, kasalning tuzalishi mumkinligini tabibning unga ochiq aytishini talab qilgan tabiblik etikasi ham bo'lgan; bunda tabib kasalga nisbatan quyidagi uch formuladan bittasini qo'llashi lozim bo'lgan:

1. Men bu kasalni tuzatishim mumkin.
2. Men bu kasalni ehtimol tuzata olarman.
3. Men bu kasalni tuzata olmayman.

Tabiblar muayyan kasalliklarga ixtisoslashgan. Ginekologiya, jarrohlik va ko'z kasalliklarini davolashga oid alohida tib kitoblari bo'lgan. Ba'zi bir kasalliklarga xos alomat va ko'rinishlarning birmuncha aniq bayon etilganligi misrliklarni tashxis qo'yish sohasida ancha bilimga ega bo'lganligi haqida xulosa qilish imkonini beradi.

Masalan, Misr tibbiy manbalarida me'da - ichak kasalliklari (dizenteriya), nafas yo'llari kasalliklari (eski yo'tal, nafas siqishi), qon ketishi, bod, skarlatina, ko'z kasalliklari (katarakta – ko'z gavharlarining xira tortishi), teri kasalliklari (gangrena, shishlar) va boshqa har xil kasalliklar mufassal bayon etilgan. Qadimgi podsholik davriga mansub maqbaralardan birida turli a'zolarni (qo'l, oyoq, tizzani) operatsiya qilish jarayoni aks ettirilgan tasvirlar saqlangan. Keyingi davrlarda jarroqlik yuksak darajada taraqqiy etgan. Jarrohlik to'g'risidagi asarda badandagi turli a'zolarning: bosh suyagi, burun, iyak, quloqlar, lab, bo'g'iz, hiqildoq, o'mrov suyaklari, yelka suyagi, ko'krak, ko'krak qafasi, umurtqa pog'onasining shikastlanishi va jaroqatlanishi mufassal bayon etilgan. Ba'zi kasalliklarning nomi va tajriba asosidagi retsepturasi qadimgi Misr tabobatining qay darajada taraqqiy qilganidan dalolat beradi; antik dunyoning tibbiyot sohasida asar yozgan mualliflari qadimgi Misr tabobatining bu muvaffaqiyatlaridan keng ravishda foydalanganlar.

Qon aylanishiga oid, odam organizmida va kasalliklar jarayonida muhim rol o'ynaydigan, yurakdan tarqaluvchi (misrlik tabibning fikricha) “22 tomir” to'g'risidagi ta'limot ilmiy xulosalar chiqarish uchun dastlabki intilishlardan biridir. Bu jihatdan Ebers tabobat papirusidagi so'zlar o'ziga xos: “Tabiblik siri-yurak faoliyatini bilishdan boshlanadi, tomirlar butun tanga yurakdan tarqaladi; chunki tabib afsungar bosh, ensa, qo'l, kaft, oyoq, xullas qaysi a'zoni o'rganmasin, ularning bari yurakka qoqiladi, chunki har bir a'zoga yurakdan tomir ketgan”.

Odamning har narsani bilishga intilishi, uning fikri, diniy - sehrli dunyoqarashi hukmron bo'lishiga qaramay, ana shu tariqa asta - sekin rivojlanib borgan.

Mil.av.1V-III asrlarda nina bilan davolash usulidan foydalanilgan, 52 kasallikka davo bo'lmish 280 usul haqida mil.av.II asrda yozilgan tabobat qo'lyozmalari topilgan. Mil.av.III asrda tabib Xua To operatsiya qilishda mahalliy anesteziyadan foydalangan.

Qadimgi hind tabobat allomalari o'z bilimlari, mahoratlari bilan Sharq olamida katta shuhrat qozonganlar. Ular inson bosh suyagi chanog'ini ochib, murakkab jarrohlik ishlarini amalga oshirganlar.

Buyuk vatandoshimiz Abu Ali ibn Sino tabobat ilmiga alohida mehr qo'ygandi. Uning ilmiy qarashlari ikki yo'nalishda: tabobat va falsafiy sohalarda rivojlandi. 17 yoshidayoq olim sifatida shakllandi, katta nufuzli tabib bo'lib yetishdi. Ibn Sino Qoraxoniylarning Somoniylarga yetkazgan talofatlarining (992 yil va 999 yil) va Buxoroni ikki marta qarshiliksiz zabt etganligining shohidi bo'ldi. Yangi sulola hokimiyatining birinchi yiliyiq boshlangan tartibsizliklar sababli, u 1002 yilda ko'plab buyuk olimlar yig'ilgan Urganchga, Xorazmshoh saroyiga ketdi. Agar xuddi shunday muhit davlatlarda va mamlakatlarda vujudga kelsa, albatta, shu yerda madaniy hayot inqirozga yuz tutgan. Xorazmni Mahmud G'aznaviy egallagach, Ibn Sino Gurgon amirligiga, u yerdan Hamadonga – buyayxiylar hukmdori Shams ad-Davla (997–1021 yillar) huzuriga ketadi.

Buyuk qomusiy olimdan juda katta meros qolgan, umuman, turli fan sohalariga oid 450 dan ortiq ilmiy asarlari qayd etilgan. Biroq, bizgacha Ibn Sinoning faqat 242 ta asari yetib kelgan, xolos. Ularning 80 tasi falsafa, ilohiyot va tasavvufga, 43 tasi tabobatga, 19 tasi mantiqqa, 26 tasi ruhshunoslikka, 23 tasi tabobat ilmiga, 7 tasi falakiyotga, 1 tasi riyoziyotga, 1 tasi musiqaga, 2 tasi kimyoga, 9 tasi odob ilmiga, 4 tasi adabiyotga, 8 tasi boshqa olimlar bilan bo'lgan yozishmalarga tegishlidir. Ulug' hakimning tabobatga oid shoh asari, albatta, "Kitob al-Qonun fi-t-tib" ("Tib qonunlari kitobi") dir. Ibn Sino "Tib qonunlari"ni besh kitobga bo'lgan, bu kitobning jahonshumul ahamiyati shundaki, u XVIII asrning oxirlariga qadar Yevropaning tabobat o'quv yurtlarida asosiy o'quv qo'llanmasi bo'lgan.

Ibn Sino Sharqda "Shayxur-ra'is", G'arbda esa "Avitsenna" nomi bilan mashhur bo'lgan.

2.2.IBTIDOIY TABOBATNING HOZIRGI ZAMONAVIY TIBBIYOTDA TUTGAN O'RNI.

Galen (Galenus) Klavdiy (taxm. 129, Pergam — 201, Rim) — qadimgi rim tabibi va tabiatshunosi. Sharkda Jolinus hakim nomi bilan mashhur. Tabobat va falsafaga oid ko'plab asarlar muallifi. Qadimgi Rim ma'murlari markazlashgan davlatda tabobatni rivojlanishini talab qildi.

- Asklepiod, Korneliy, Sels - 70 jildlik «Arteo» («San'at») nomli asar. 8 jildi tabobat ilmiga bag'ishlangan. Klavdiy Galen Pergaliyada tug'ilgan. 17 yoshidan boshlab Asklepiod nomidagi tibbiy shifoxona maktabida o'qigan. Asarlari: «Tabiblik san'ati», «Davo usullari», «Dorilarning tarkibi haqida». Rimda tabiblar yetishtirib chiqaradigan maxsus bilim yurtlari tashkil etilgan.

«Inson tanasining qismlari haqida»gi mumtoz asarida birinchi marta bir butun organizmni anatomik-fiziologik jihatdan tasvirlab bergan. Hayvonlarda o'tkazilgan vivisektsiya tajribalarini tabobatga joriy qilgan. Galen shifobaxsh dorilar (Galen preparatlari) deb ataluvchi dori-darmonlarni hayvon va o'simlik xom ashyolaridan tayyorlagan. Tabobat tarixida qon aylanish to'g'risidagi dastlabki g'oyalarni ilgari surgan. Odam anatomiyasi va fiziologiyasi ilmiy diagnostika, davolash va profilaktikaning asosi ekanligini ko'rsatib bergan. Galen antik tabobat haqidagi tasavvurlarni yagona ta'limot tarzida umumlashtirib, 15-16 asrlarga qadar tabiatshunoslikning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Galen faylasuf sifatida sezgilardan tashqari aql ham bilish va haqiqat manbaidir, deb hisoblagan. Peripatetiklar ta'limoti bilan stoiklar ta'limotini bog'lab olib borgan. O'zining nomi bilan ataluvchi sillogizmning to'rtinchi figurasi hamda to'rt mijoz haqidagi ta'limoti mashhur. Uning «Falsafa tarixi» asari olim vafotidan keyin taxminan 500 yilda tuzilgan bo'lib, u tabobat talabalari uchun darslik hisoblangan. Galen ta'limoti cherkov tomonidan qonunlashtirilgan va u tabobatda ko'p asrlar mobaynida hukm surgan.

Galen preparatlari (Praeparata galenica, s, Galenica)— o'simliklar (ildizi, bargi, guli, po'stlog'i va b.), minerallar va hayvonlar xom ashyosini qayta ishlab olinadigan dorilar. Qadimgi Rim tabibi Klavdiy Galen nomi bilan yuritiladi.

Faqat Galen davrida emas, balki hozir ham turli farmatsevtik usullar bilann tayyorlangan har xil dorilar Galen preparatlari deb ataladi. Ko'pchilik Galen preparatlari xom ashyodan, uni suv, spirt, efir yoki spirt bilan suv, efir bilan spirt aralashmalari vositasida ekstraktsiya qilib olinadi. Boshqalari esa, odatda, biror dorivor moddaning suv, spirt yoki yog'dagi eritmasidan iboratdir. Galen preparatlarining asosiy guruhleri: ekstraktlar, nastoykalar, xushbo'y suv va spirtlar, sharbatlar, eritmalar, sovunli spirtlar, sovun-krezolli preparatlar va h.k. Zamonaviy shifobaxsh preparatlar (pepsin, tireoidin, aloe, qora smorodina ekstraktleri, allilsat va b.) Galen preparatlari sirasiga kiradi.

Neogalen (novogalen) preparatlari o'simlik xom ashyosidan tayyorlanib, ballast moddalardan mumkin qadar tozalangan va biologik jihatdan standartlangan alohida Galen preparatlaridir. Bularni in'eksiya (teri ostiga yuborish) uchun ishlatga bo'ladi.

Mumiyo (arabcha so'z, lotincha mumia), mumiyoysi asl, tog' balzami, bragshun, bargshun, chaotun — fiziologik funksiyalarni kuchaytiradigan murakkab biologik tabiiy mahsulot, kryalarning yoriqlaridan sizib chiqadigan smolasimon modda. Umuman mumiyoysi biologik, geologik va biomineralogik o'zgarishlar mahsuloti deyish mumkin.

Tabobatda qadimdan ishlatib kelingan. Abu Bakr-ar Roziy bosh og'rig'i, bosh aylanishi, yuz nervi falaji, tutqanoq, yurak-qon tomir sistemasi, nafas yo'llari va boshqa a'zolar kasalliklarida mumiyo ishlatgan. Abu Ali ibn Sino o'zining «Tib qonunlari»da mumiyoysi me'dani mustahkamlaydigan, nafas olishni yengillashtiradigan, binobarin eng takomillashgan universal dori deb tavsiflagan. Mumiyoysi kelib chiqishi haqida juda ko'p fikrlar mavjud.

Mumiyo xamirday muloyim, ta'mi achchiq, suvda eriydi. Tarkibida turli organik moddalar va mikroelementlar bor. O'rta Osiyo hududida mumiyoysi manbalari ko'p. Tilla rang (kizil), kumush rang (oqish), mis rang (ko'kish) va temir rang (qoramtir-qo'ng'ir) mumiyo bo'ladi. Temir rang mumiyo ko'proq tarqalgan. Asosan, tabobatda qo'llanadi.

Mumiyo yiringlatuvchi mikroblarni o'ldiradi, jarohat, yara va singan suyaklarni tez tuzatadi. Lat yegan, singan suyaklarni davolashda mumiyodan foydalanish sir-asrorlarini O'zbekistonda professor O. Sh. Shokirov ilmiy jihatdan asoslab berdi. Mumiyoni membrana orqali tozalash, purkash usulida quritish va kukunga aylantirish, tabletkasini qobiqlash texnologiyasi, tarkibidagi mikroelementlar, aminokislotalar, yog' kislotalarining sifat va miqdor analizi, standartlash usullari Toshkent farmatsevtika institutida ishlab chiqildi (S. N. Aminov, V. E. Kim, L. M. Solieva). hozirda mumiyo O'zkiymofarm OAJ da tabletkada holida (M. Usubboev) ishlab chiqariladi.

Mumiyodan o'z bilgicha foydalanish yaramaydi, uni faqat vrach tavsiya etgan hollardagina qo'llash mumkin¹⁷.

XULOSA

Ibtidoiy tabobat qadimiy sohalardan biri bo'lib, inson paydo bo'libdiki uning tug'ilishidan to vafotiga qadar tabobatga murojaat qilgan. Lekin ibtidoiy tabobat juda soda ko'rinishda bo'lgan. Shuning uchun ham qadimgi odamlar uzoq umr ko'rmagan. Bobda yuqorida qayt etilgan ibtidoiy tabobatning paydo bo'lish tarixi, bu davrda qo'llanilgan usullar, keyinchalik tabobatga katta e'tibor qaratilishi natijasida egallangan tabobat ilmi, bu sohada buyuk ishlar bilan nom qoldirgan tabobat ilmining bilimdonlari haqida to'xtalib o'tilgan. Bob yakunida esa ibtidoiy tabobatning hozirgi zamonaviy tibbiyotda tutgan o'rni va ahamiyat yoritishga harakat qilingan.

¹⁷ Шакиров А. Ш., Мумиё асиль в комплексном лечении переломов костей, Т., 1976; Бурдыкин Б., Мумиё. Санкт-Петербург, 2001.

XULOSA

Kurs ishining xulosasida shuni ta'kidlash lozimki ibtidoiy davr san'ati va tabobati hozirgi davr san'ati va tabobatining teran ildizlari hisoblanib, juda qadim davrlarga borib taqaladi. Bu jarayonlarda bizning buyuk alloma bobolarimiz ham o'z ilmiy salohiyati va iqtidori natijasi sifatida qoldirgan moddiy va ma'naviy boyliklari bilan biz avlodlarga tuganmas faxr va iftixor hissini tuyishga zamin yaratib ketishgan. Bularning natijasida bashariyat bizning ajdodlarimiz oldida o'zining cheksiz hurmatini izhor etadi.

Kurs ishida ushbu qadimiy inson ijodiyoti mahsuli bo'lmish san'at va tabobat qisman bo'lsada o'rganishga harakat qilindi.

Kurs ishida tabobat bilan san'atning birga o'rganilishi zahirida chuqur ma'no bo'lib, tabobat ham san'atdir bizning fikrimizcha.

Kurs ishini yozish davomida shunday xulosaga keldikki, bu mavzudagi ilmiy tadqiqot ishlari hech qachon yakuniga yetmaydi va o'rganilgan sari yangi ko'z ochgan chashmadek o'z sirlarini bizga ochib, hali ko'p asrlar o'ziga asir etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO'YXATI

1. Чабб М., Здесь жила Нефертити. М., 1961.
2. Керам К. Узкое ущелье и Черная гора. М., 1962.
3. Нейхартд А.А. Шишова И.А. Семь чудес света. Л., 1966.
4. Кондратов А.М. Погибшие цивилизации. М., 1968.
5. Брентъес Б. От Шанидара до Аккада. М., 1976.
6. Кацнельсон И.С. Тутанхамон и сокровища его гробницы. М., 1979.
7. Ллойд Сетон. Археология Месопотамии. М., 1981.
8. Крамер С.Н. История начинается в Шумере. М., 1991.
9. Всеобщая история искусств. Т.1., М., 1956
10. Матъе М.Э. Искусство Древнего Египта. М., 1962.
11. Лосева И. Искусство древней Мессопатамии. М., 1946.
12. Культура и искусство Вавилонии, Ассирии и соседних стран. М., 1953
13. Флиттнер Н.Д. Культура и искусство Двуречья и соседних стран. Л. –М., 1958.
14. Уилбер Д. Персеполю. Археологические раскопки резиденций персидских царей. М., 1977.
15. Кошеленко Г.А. Городской строй греческих полисов Западной Парфии. ВДИ. 1960, №4.
16. Прокофьев О. Искусство Индии. М., 1964.
17. Орбели И.А. Мусульманские изразцы. 1923.
18. Веймарн Б., Кантерева Т., Подольский ... Искусство арабских народов. (средневековый период). М., 1960.
19. Каптерева Т.П., Виноградова Н.А. Искусство средневекового Востока. М., 1989
20. Шакиров А. Ш., Мумиё асиль в комплексном лечении переломов костей, Т., 1976; Бурдыкин Б., Мумиё. Санкт-Петербург, 2001.

ILOVA

